


ISSN 2181-0000  
Doi Journal 10.26739/2181-0000

# JOURNAL OF MAMUN SCIENCE



VOLUME 2, ISSUE 2 **2024**



ISSN 2181-0000  
Doi Journal 10.26739/2181-0000



# «MA'MUN SCIENCE» JURNALI

2 JILD, 2 SON

ЖУРНАЛ «MAMUN SCIENCE»  
TOM 2, HOMEP 2

JOURNAL OF «MAMUN SCIENCE»  
VOLUME 2, ISSUE 2



TOSHKENT-2024

# «MA'MUN SCIENCE» JURNALI

ЖУРНАЛ «МА'MUN SCIENCE» | JOURNAL OF «MAMUN SCIENCE»

№2 (2024) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-0000-2024-2>

Бош мухаррир: | Главный редактор:  
Chief Editor:

**Urazbayeva Dilbar Abdullayevna**  
Psixologiya fanlari doktori (DSc), professor  
Ma'mun Universiteti NTM

Бош мухаррир ўринбосари: | Заместитель  
главного редактора: | Deputy Chief Editor:

**Xudoynazarov Egambergan Madrahimovich**  
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),  
dotsent Ma'mun Universiteti NTM

## TAHRIRIY MASLAHAT KENGASHI | EDITORIAL BOARD | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ

### FILOLOGIYA FANLARI (INGLIZ TILI)

**Axmedov Oybek Saporboyevich**

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor  
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

**O'rozboyev Abdulla Durdibayevich**

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor  
Ma'mun Universiteti NTM

**Kalandarov Oybek Ruzimbayevich**

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
Ma'mun Universiteti NTM

**Yakubov Muzaffar Kamildjanovich**

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
Ma'mun Universiteti NTM

**Galiyeva Margarita Rafaelovna**

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor  
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

**Nasrullayeva Nafisa Zafarovna**

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor  
Samarqand davlat chet tillari instituti

**Cho'ponov Otanazar Otojonovich**

Filologiya fanlari doktori (DSc)  
Urganch davlat universiteti

**Yakubova Matluba Tajibayevna**

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
Ma'mun Universiteti NTM

**Samandarova Lola Sultanovna**

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

### FILOLOGIYA FANLARI (RUS TILI)

**Cho'ponov Otanazar Otojonovich**

Filologiya fanlari doktori (DSc)  
Urganch davlat universiteti

**Ruzmetov Surojbek Allaberganovich**

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
Urganch davlat universiteti

### FILOLOGIYA FANLARI (NEMIS)

**Yakubova Matluba Tajibayevna**

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
Urganch davlat universiteti

### FILOLOGIYA FANLARI (O'ZBEK TILI)

**Matnazarov Javlanbek Kabulovich**

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
Ma'mun Universiteti NTM

### TARIX FANLARI

**Anatoliy Sagdullayevich Sagdullayev**

Tarix fanlari doktori, professor; akademik

O'zbekiston Respublikasi Fanlar  
akademiyasining haqiqiy a'zosi

**Ashirov Adhamjon Azimbayevich**

Tarix fanlari doktori, professor,  
O'zbekiston Respublikasi

Fanlar akademiyasi Tarix instituti.

**Goncharov Yuriy Mixaylovich**

Tarix fanlari doktori, professor  
Altay davlat universiteti Rossiya

**Shaydurov Vladimir Nikolayevich**

Tarix fanlari doktori, dotsent  
Leningrad davlat universiteti Rossiya

**Abdullayev Utkir Ismoilovich**

Tarix fanlari doktori (DSc),  
dotsent Urganch davlat universiteti

**Matkarimova Sadoqat Maqsudovna**

Tarix fanlari doktori (DSc), dotsent  
Ma'mun Universiteti NTM

**Abdullayev Timur Pulatovich**

Tarix fanlari nomzodi, dotsent  
Ma'mun Universiteti NTM

**Abdalov Umidbek Matniyazovich**

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),  
Dotsent Ma'mun Universiteti NTM

**Jumaniyozova Mamlakat Tojiyevna**

Tarix fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Urganch davlat universiteti

**Xo'jamuratov Umarjon Rustamovich**

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
Urganch pedagogika instituti

### PSIXOLOGIYA FANLARI

**Shoumarov G'ayrat Baxromovich**

Psixologiya fanlari doktori, professor; akademik  
O'zbekiston Respublikasi

Fanlar akademiyasining haqiqiy a'zosi

**Kryukova Tatyana Leonidovna**

Psixologiya fanlari doktori, professor  
Kostroma davlat universiteti Belorusiya

**Karpinskiy Konstantin Viktorovich**

Psixologiya fanlari doktori, professor  
Grodno davlat universiteti Belorusiya

## **IQTISODIYOT FANLARI**

### **Ruzmetov Baxtiyar**

Iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Ma'mun Universiteti NTM

### **Sherov Alisher Bakberganovich**

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa  
doktori (PhD), professor

Ma'mun Universiteti NTM

### **Voronsova Yuliya Vladimirovna**

Iqtisodiyot fanlari nomzodi

Moskva davlat boshqaruvi universiteti

### **Jabborov Umarbek Rustambekovich**

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

### **Cho'ponov San'at Otanazarovich**

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

### **Niyazmetov Islambek Masharipovich**

Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

## **PEDAGOGIKA VA FALSAFA FANLARI**

### **Sardor Sharifzoda O'razboy Tabib o'gli**

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa  
doktori (PhD), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

### **Matnazarov Javlanbek Kabulovich**

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

### **Adilov Zafar Yunusovich**

Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

### **Slepko Yuriy Nikolayevich**

Psixologiya fanlari doktori, professor  
Yaroslav davlat pedagogika universiteti

### **Xazova Svetlana Abduraxmanovna**

Psixologiya fanlari doktori, dotsent Kostroma  
davlat universiteti Belorusiya

### **Kalandarova Madina Baxadirovna**

Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

### **Nurullayeva Baxtigul Bobojonovna**

Psixologiya fanlari nomzodi, dotsent Ma'mun

Universiteti NTM

## **TIBBIYOT FANLARI**

### **Yuldashev Baxrom Sobirjanevich**

Tibbiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

### **Abdullayev Ravshanbek Babajonovich**

Tibbiyot fanlari doktori, professor

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

### **Esamuratov Aybek Ibragimovich**

Tibbiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

### **Samandarova Barno Sultonovna**

Biologiya fanlari nomzodi, dotsent

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

### **Tajiyeva Zebo Baxodirovna**

Tibbiyot fanlari falsafa doktori (PhD)

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

### **Nazarova Maloxat Berdiboyevna**

Tibbiyot fanlari falsafa doktori (PhD)

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

### **Xudaynazarova Salomat Ruzibaevna**

Tibbiyot fanlari nomzodi, dotsent

Toshkent pediatriya tibbiyot instituti

## **ILMIY JURNAL TEXNIK KOTIBI**

### **Sultanov Samandar Maxmud o'g'li**

Arxeolog (tadqiqotchi pedagog)

Ma'mun Universiteti NTM

**FILOLOGIYA**

<b>1. Ашимханова Светлана Ашимхановна, Абдуллаева Айнур Аскарровна</b> РОЛЬ СРАВНЕНИЙ КАК ОБРАЗНОЕ СРЕДСТВО В ХУДОЖЕСТВЕННОМ ПРОИЗВЕДЕНИИ.....	8
<b>2. Murodov G‘ayrat Nekovich</b> EPOS VA ROMAN: ADABIY-BADIY BOG‘LANISHLAR.....	13
<b>3. Чупонов Отаназар Отажонович</b> РУКОПИСНЫЕ КНИГИ КАК ЛИНГВИСТИЧЕСКИЙ ИСТОЧНИК.....	20
<b>4. Худайбергенова Умида Комилджановна</b> СОЦИОЛИНГВИСТИЧЕСКИЙ АСПЕКТ ЭРГОНОМОВ.....	26
<b>5. Pardayeva Sojida Ahmatovna</b> WHAT IS PRAGMALINGUISTICS IN LINGUISTICS?.....	34
<b>6. Зеленина Тамара Ивановна, Тойкина Ольга Владимировна</b> МНОГОЯЗЫЧИЕ И МЕХАНИЗМЫ ВЗАИМОДЕЙСТВИЯ РАЗНОСТРУКТУРНЫХ ЯЗЫКОВ.....	39
<b>7. Tursunbaeva Gulruh Mukhametovna</b> SELECTED FEATURES OF FILM TRANSLATION AS THE KEY ISSUE IN ACQUIRING ENGLISH AS A FOREIGN LANGUAGE.....	45
<b>8. Gadoyeva Mavlyuda Ibragimovna</b> INSON TANA A‘ZOLARI HAQIDAGI TOPISHMOQLARNING LINGVOPOETIK XUSUSIYATLARI.....	51
<b>9. Маркин Владимир Васильевич, Маркина Полина Владимировна</b> СОЦИОКУЛЬТУРНАЯ АДАПТАЦИЯ: СУЩНОСТЬ И ФУНКЦИИ.....	58
<b>10. Ашимханова Светлана Ашимхановна, Абдуллаева Айнур Аскарровна</b> РОЛЬ МЕТАФОР КАК ОБРАЗНОЕ СРЕДСТВО В ХУДОЖЕСТВЕННОМ ПРОИЗВЕДЕНИИ.....	64
<b>11. Абдиева Камола Аслидин кизи</b> ОСНОВНЫЕ ЧЕРТЫ СОВРЕМЕННОГО ЭЛЕКТРОННОГО КОРПУСА.....	70

**IQTISODIYOT**

<b>1. Xaydarov Ixom To‘xtayevich</b> SUG‘URTA SOHASIGA OID TERMINLAR TAHLILI.....	76
<b>2. Кипкеева Асият Магомедовна</b> ВЛИЯНИЕ ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ НА РОСТ И РАЗВИТИЕ СТРАНЫ.....	81
<b>3. Annazarova Barno Rustamovna</b> RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA AHOLINI RO‘YHATGA OLISH JARAYONLARINI SAMARALI TASHKIL ETISH HOLATINING TAHLILI.....	86

## PEDAGOGIKA – PSIXOLOGIYA

- 1. Ибраимов Холбой Ибрагимович**  
ЗАМОНАВИЙ ЖАМИЯТДА ИНКЛЮЗИВ ТАЪЛИМ МУАММОЛАРИ ВА  
РИВОЖЛАНИШ ИСТИҚБОЛЛАРИ.....92
- 2. Urazbaeva Dilbar Abdullaevna**  
SUT BEZI SARATONI TASHXISLI BEMORLARDA KASALLIKKA MUNOSABAT TIPI  
NAMOYON BO‘LISHINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....97
- 3. Kalandarova Madina Bahadirovna**  
PERINATAL PSIXOLOGIYADA PSIXODIAGNOSTIK METODIKALARNI QO‘LLASH....105
- 4. Хазова Светлана Абдурахмановна, Рукавишников Дина Рафаиловна**  
СВЯЗЬ ОТНОШЕНИЯ К БОЛЕЗНИ И ЭМОЦИОНАЛЬНОГО СОСТОЯНИЯ  
ЖЕНЩИН, ПЕРЕНЕСШИХ ХИРУРГИЧЕСКОЕ ВМЕШАТЕЛЬСТВО ПО ПОВОДУ  
РАКА МОЛОЧНОЙ ЖЕЛЕЗЫ.....111
- 5. Jumaniyazova Imira Kamiljanovna**  
INSULT KASALLIGINING TIBBIY - PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARINING NAZARIY  
VA AMALIY TAHLILI.....117
- 6. Sadikova Umida Botirovna**  
QANDLI DIABET KASALLIGI TASHXISI QO‘YILGAN BEMORLARNING  
PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI.....123
- 7. Парфёнова Татьяна Вячеславовна**  
ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ МЕХАНИЗМЫ И ЗАКОНОМЕРНОСТИ ЛИЧНОСТНЫХ  
ИЗМЕНЕНИЙ КОСВЕННЫХ СВИДЕТЕЛЕЙ ЭКСТРЕМАЛЬНОГО  
МАКРОСОЦИАЛЬНОГО СОБЫТИЯ.....128
- 8. Kasimova Xulkar Atabayevna**  
NOGIRONLIGI BO‘LGAN TALABALARNING KOPING STRATEGIYALARI  
BO‘YICHA OLINGAN NATIJALARNING PSIXOLOGIK TAVSIFI.....132
- 9. Силина Елена Алексеевна, Крюкова Татьяна Леонидовна**  
СОЦИАЛЬНЫЕ ПРЕДСТАВЛЕНИЯ О НАСИЛИИ В ОТНОШЕНИЯХ ПАРТНЕРОВ.....138
- 10. Jumaniyozova Nasiba Ramatillayevna**  
AUTIST BOLALAR BILAN ISHLOVCHI MUTAXASSISLARDA PSIXOLOGIK  
STRESSNING NAMOYON BO‘LISHI.....144
- 11. Nurullayeva Baxtigul Bobojonovna, Fozilova Sabohat Nodir qizi**  
PEDAGOGLARDA KASBIY ZO‘RIQISHNI NAMOYON BO‘LISHI VA UNI  
KORREKSIYASI.....149
- 12. Qurbonova Shaxloxon Bahodirovna**  
GENDER IJTIMOYILASHUV TUSHUNCHASI VA DIFFERENSIAL FARQLARNING  
O‘ZIGA XOSLIGI.....155

## TIBBIYOT


- 1. Abdullayev Ravshanbek Babajonovich, Bakhtiyarova Aziza Maqsudbekovna**  
CLINICAL CHARACTERISTICS OF PEPTIC ULCER DISEASE IN ELDERLY RESIDENTS  
OF THE KHOREZM REGION.....161
- 2. Назарова Малохат Бердибаевна, Адилбеква Дилором Бахтиёровна**  
ВЛИЯНИЕ ХРОНИЧЕСКОГО ТОКСИЧЕСКОГО ГЕПАТИТА МАТЕРИ НА СОСТОЯНИЕ  
ПЕЧЕНИ ПОТОМСТВА.....166

## TARIX

- 1. Mustafa Demirci**  
THE GREAT SCHOLAR OF THE MAMUNIDS PALACE: ‘ABU SAHL ISĀ B. YAḤYĀ AL  
MASĪNĪ, THE TEACHER OF IBN SĪNA AND BĪRUNĪ, AND HIS UNDISCOVERED  
SCIENTIFIC HERITAGE.....172
- 2. Нодира Кадамовна Нуруллаева**  
ГОСУДАРСТВО МАЪМУНИДОВ: МЕЖНАЦИОНАЛЬНЫЕ ОТНОШЕНИЯ И  
РЕЛИГИОЗНАЯ ТОЛЕРАНТНОСТЬ.....184
- 3. Лухманова Зарина Талибовна**  
ЭФФЕКТИВНОСТЬ МОЛОДЕЖНОЙ ПОЛИТИКИ: МЕТОДИКА РАСЧЕТА.....191
- 4. Ashirov Adhamjon Azimbayevich, Karimov Umrbek Davronbekovch**  
O‘ZBEK XALQINING EKIN-TIKINCHILIK MAROSIMLARIDA DINIY VA MILLIY  
QADRIYATLAR SIMBIOZI.....209
- 5. Matkarimova Sadokat Maksudovna**  
XX ASR OXIRI – XXI ASR BOSHLARIDA TAOMLANISH MADANIYATI  
TARAQQIYOTIDAGI O‘ZGARISHLAR.....215
- 6. Masharipova Gularam Kamilovna**  
ABU RAYHON BERUNIY VA ABU ALI IBN SINO ASARLARINING XORIJDIFI  
NUSXALARI HAQIDA.....220
- 7. Ғайбулла Бобоёрв Боллиевич, Шоҳрухмирзо Исмоилов Закиржон ўғли**  
АБУ РАЙХОН БЕРУНИЙНИНГ “ОСОР УЛ-БОҚИЙА” АСАРИДАГИ ЎҒУЗ ТУРКЛАРИ  
БОШҚАРУВЧИЛАРИНИНГ УНВОНИ “ХОНУВТА”МИ ЁКИ “ЖАБҒУЙА”?.....231
- 8. Abdalov Umidbek Matniyazovich, Pulatov Muhridin**  
XORAZMSHOHLAR DAVLATIDAGI IJTIMOY-IQTISODIY MUNOSABATLARGA OID  
BA’ZI MASALALAR.....236
- 9. Egamberdieva Nigora Azadovna**  
O‘ZBEKISTONDA DAVLATCHILIK SHAKLLANISHINING OMILLARI VA TARIXIY  
ILDIZLARI.....242
- 10. Davlatova Saodat Tilovberdiyevna, Matkarimova Nazokat Maksudovna**  
МАЪМУНИЙ ХОРАЗМШОҲЛАР ДАВЛАТИНИНГ “ОЛТИН ДАВРИ”  
ВА МАЪМУН АКАДЕМИЯСИ ОЛИМЛАРИНИНГ МУСИҚА ИЛМИ  
СОҲАСИДАГИ ФАОЛИЯТИ.....249

**Egamberdieva Nigora Azadovna,**  
tarix fanlari doktori, dotsent  
Toshkent Amaliy fanlar universiteti  
E-mail.: egamberdievanigora564@gmail.com

## O‘ZBEKISTONDA DAVLATCHILIK SHAKLLANISHINING OMILLARI VA TARIXIY ILDIZLARI

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.12515803>

### ANNOTATSIYA

Maqolada davlatchilikning shakllanishi uchun zarur bo‘lgan omillar va uning tahlili O‘zbekistonning qadimgi davri misolida berilgan. O‘zbekistonda davlatning shakllanishi uchun barcha zarur sharoitlar bronza davrida mavjud bo‘lganligi yozma va arxelogik ma‘lumotlar orqali asoslab berilgan. Sopollitepa va Jarqo‘ton shahrida ilk davlatchilik elementlari mavjudligi ko‘rsatilgan. Sug‘d davlati ilk temir davrida, qadimgi Xorazm davlati axamoniylar hukmronligidan oldin vujudga kelganligi bayon qilingan. Davlatning shakllanishida tabiiy geografik sharoit va iqtisodiy omil muhim ahamiyat kasb etishi ko‘rsatilgan.

**Kalit so‘zlar:** davlat, bronza davri, Sopollitepa, Jarqo‘ton, “Katta Xorazm”, Baqtriya, Kaviy, Sug‘d, qadimgi Xorazm.

---

**Egamberdieva Nigora Azadovna,**  
Doctor of Historical Sciences, Associate Professor  
Tashkent University of Applied Sciences  
Email.: egamberdievanigora564@gmail.com

## HISTORICAL ROOTS AND FACTORS OF THE EMERGENCE OF STATE IN UZBEKISTAN

### ABSTRACT

The article discusses the necessary factors for the emergence of statehood and its analysis is given using the example of ancient Uzbekistan. It is substantiated on the basis of written and archaeological research that in the Bronze Age there were necessary conditions for the formation of a state in Uzbekistan. Elements of early statehood are present in Sapallitepe and Zharkutan. In Sogd the early state arose in the early Iron Age, and in ancient Khorezm before the rule of the Achaemenids. It is shown that natural-geographical conditions and economic factors play an important role in the formation of statehood.

**Keywords:** state, Bronze Age, Sapallitepa, Zharkutan, “Great Khorezm”, Bactria, Kavi, Sogd, ancient Khorezm.

---

**Эгамбердиева Нигора Азадовна,**  
доктор исторических наук, доцент  
Ташкентский университет прикладных наук  
E-mail.: egamberdievanigora564@gmail.com



## ИСТОРИЧЕСКИЕ КОРНИ И ФАКТОРЫ ВОЗНИКНОВЕНИЯ ГОСУДАРСТВЕННОСТИ В УЗБЕКИСТАНЕ

### АННОТАЦИЯ

В статье рассматриваются необходимые факторы возникновения государственности и дается ее анализ на примере древнего Узбекистана. На основе письменных и археологических исследований обосновано, что в эпоху бронзы были необходимые условия для формирования государства в Узбекистане. Элементы ранней государственности имеются в Сапаллитепе и Жаркутане. В Согде раннее государство возникло в раннем железном веке, а в древнем Хорезме — до правления Ахеменидов. Показано, что природно-географические условия и экономические факторы играют важную роль в формировании государственности.

**Ключевые слова:** государство, бронзовый век, Сапаллитепа, Жаркутан, “Большой Хорезм”, Бактрия, Кави, Согд, древний Хорезм.

### KIRISH VA DOLZARBLIGI.

Davlatning tashkil topishi masalasi doimo olimlar o‘rtasida munozara mavzusi bo‘lib kelgan. Uning vujudga kelishi va taraqqiyoti to‘g‘risida tarixchi, jamiyatshunos, siyosatshunos olimlar tomonidan turli nazariyalar ilgari surilgan. Jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish jarayonining asosini birinchi navbatda inson ehtiyoji, uning o‘z turmush tarzini yaxshilashga bo‘lgan intilishi yotadi. Davlat ham insonlarning unga bo‘lgan ehtiyoji natijasida shakllangan. O‘z rivojlanish jarayonida turli taraqqiyot bosqichlarini boshdan kechirib, turli shakllarda namoyon bo‘lgan. Bu har bir hududning tabiiy, iqtisodiy va ijtimoiy omillariga bog‘liq holda yuz bergan. O‘zbekiston hududida qadimgi davrda mavjud bo‘lgan davlatlarning rivojlanishi, jahon sivilizatsiyasi jarayoniga qo‘shgan hissalarini yangicha yondashuvlar, tahlillar asosida o‘rganish va tarixiy rivojlanishdagi o‘ziga xoslikni, umumiylikni talqin qilish dolzarb ilmiy ahamiyat kasb etadi.

### METODLAR VA O‘RGANILISH DARAJASI.

Tadqiqotda xronologik ketma-ketlik, qiyosiy tahlil, tarixiylik, determinizm tamoyillari, tizimli yondoshuv, xolislik tamoyillari kabi metodlardan unumli foydalanildi.

Tadqiqot mavzusining o‘rganilish darajasini uchta davrga ajratib ko‘rsatish mumkin:

Birinchi davr XX asrning 30 - yillarigacha bo‘lgan davr bo‘lib, bunda yozma manbalar talqini asosida O‘zbekiston hududida shakllangan ilk davlatlar qadimgi Baqtriya va “Katta Xorazm” g‘oyasi ilgari surilgan.

Ikkinchi davr XX asrning 30 - 90 – yillarini o‘z ichiga oladi. Bu davrda Xorazm, Termiz, Farg‘ona, Toshkent, Buxoro arxeologik ekspeditsiyalari tashkil qilinib, O‘zbekistonning qadimgi davr tarixi tadqiq qilishda keng miqyosd arxeologik tadqiqot ishlari olib borilgan. Tadqiqotlar jarayonida ko‘plab yangi arxeologik yodgorliklar qayd qilinib, xaritalarga tushirildi. “Baqtriya podsholigi” masalasi asoslanib, “Katta Xorazm” ilmiy farazi arxeologik tadqiqotlar asosida isbotlashga harakat qilingan [25].

Uchinchi davr – XX asrning 90 – yillaridan bugungi kungacha bo‘lgan davrni qamraydi. Bu davrda o‘zbek davlatchiligining shakllanishi va rivojlanishi, ilk shaharsozlik va urbanizatsiya jarayonlari bilan bog‘liq masalalar keng tadqiqot mavzusiga aylandi. Xitoy manbalarini keng miqyosda qayta o‘rganish asosida qadimgi davlatlarning nomlanishi, xitoy bilan aloqalari bilan bog‘liq masalalar oydinlashtirildi. Baqtriya podsholigi tarixini yozma manbalar orqali tadqiq qilish borasida yangi g‘oyalar ilgari surildi. “Katta Xorazm” qabilalari konfederatsiyasi g‘oyasini rad qiluvchi dalillar to‘plandi. Qadimgi Xorazm va Sug‘d davlati tarixi bo‘yicha yangi tadqiqot ishlari olib borildi.

### TADQIQOT NATIJALARI.

Insoniyat tarixining eng qadimgi davrlarida hayot zaruriyati tufayli to‘da bo‘lib yashagan odamlarda urug‘ jamoalari shakllandi. Urug‘ zamirida qabila vujudga keldi. Qabilalar zamiridan qabilalari ittifoqi shakllangan. Qabilalar ittifoqining tashkil topishida ham hayotiy zaruriyat yotgan, bu bir tomondan tashqi dushmandan himoyalani bo‘lsa, ikkinchi tomondan yashayotgan hududini

kengaytirish hisoblangan. Chorvadorlar chorvalari uchun keng yaylovlarni egallashga intilsalar, dehqonlar unumdor, suvga yaqin yerlarni egallashga intilganlar. Amudaryo havzasi hududlarida esa, sun'iy sug'orish tizimining mavjudligi dehqonlarning uyushqoqlik bilan harakat qilishini talab etgan. Xuddi shu jarayonda jamiyatda boshqaruv elementlari – davlatchilik vujudga kelgan. Tarixdan ma'lumki, ilk shahar–davlatlar yirik daryolarning havzalarida shakllangan. Jumladan, Misr Nil daryosining quyi havzasida, Mesopotomiyadagi ilk davlatlar Dajla va Frot daryolarining havzalarida, Hindiston Ganga daryosi, Xitoy Xuanxe daryosining quyi havzasida shakllangan. Amudaryo havzasi bo'ylab esa, uch davlat -Baqtriya, Sug'd va qadimgi Xorazm davlatlari vujudga kelgan. Sirdaryoning o'rta oqimida Shosh davlati tashkil topgan.

Daryo havzalarida dehqonchilikni shakllantirish uchun qulay sharoit bo'lgan. Dehqonchilikning rivojlanishi va hosilning mo'l bo'lishi, iqtisodiyotning rivojlanishiga olib kelgan. Natijada, aholining ortiqcha mahsuloti paydo bo'lgan va uni himoyalash uchun birlashish zaruriyati tug'ilgan. O'z navbatida, aholi orasidan uni birlashtirib, to'g'ri yo'lga sola oladigan oqsoqol ajralib chiqqan. U qandaydir kuchlar natijasida emas, balki o'z aqliy qobiyati, tadbirkorligi, mahorati bilan ajralib chiqib, aholini birlashtira olgan, hayotiy muammolarning yechimini to'g'ri topgan va aholini orqasidan yetaklay olgan. Uning bu qobiliyatini to'g'ri anglagan qabiladoshlari, uni o'zlarga yetakchi–boshqaruvchi etib tanlaganlar.

Chorvachilik bilan shug'ullangan qabilalarda ilk davlatchilik elementlari qabilalar ittifoqida, ya'ni konfederatsiyada namoyon bo'lgan. Konfederatsiyada chorvadorlar birgalikda chorvalarni, o'z yaylovlarni himoya qilganlar va yangi yaylovlarni egallash imkoniyatiga ega bo'lganlar. Chorvadorlar o'zlarining mohir jangavor qobiliyati, uyushqoqligi va birdamligi bilan ajralib turgan.

Davlat boshqaruv tizimining shakllanishiga iqtisodiy va ijtimoiy omillar ta'sir ko'rsatgan. Birinchi navbatda, mehnat taqsimoti, ya'ni dehqonchilikning chorvachilikdan ajralishi natijasida dehqonlar va chorvadorlar yashaydigan hududlar ham alohida bo'lgan. Ikkinchi mehnat taqsimoti sababli, dehqonchilikdan hunarmandchilik ajralib, davlat boshqaruvining markazi – shaharlarning shakllanishiga zamin yaratilgan. Hunarmandchilik mahsulotiga bo'lgan talabning oshishi va ishlab chiqarishning ko'payishi bozor, savdo, pul munosabatlari vujudga keltirgan. Bu omillar davlat boshqaruvining tartibga solinishi va murakkablashuviga sabab bo'lgan. Savdo–sotiq munosabatlari jamoalar o'rtasida va boshqa qo'shni xalqlar bilan amalga oshirilib, o'zaro murakkab munosabatlar shakllanishiga olib kelgan [14].

Ibtidoiy jamiyatdan qadimgi davrga o'tish jarayonida insonlar o'rtasida o'zaro munosabatlarning murakkablashuvi va dehqonchilik hududlarga chorvadorlarning hujumi oqibatida harbiylarning roli kuchaygan. Bu jarayon tarixga harbiy–demokratiya davri deb kirgan. Lekin barcha xalqlarda ham harbiy–demokratiya jarayoni bir xil tarzda kechgan deb bo'lmaydi. Amudaryo havzasi hududlarida bronza va ilk temir davriga oid yodgorliklarda urush yoki yong'in izlari kuzatilmaydi. Tadqiqotchilar bu jarayonni dehqonlar va chorvadorlar o'rtasidagi munosabatlarning tinch kechganligi bilan izohlashadi. Lekin Baqtriyada bronza davrida, Sug'd va Xorazmda ilk temir davri oxirlarida mustahkam mudofaasi va boshqaruv markazi–arkka ega bo'lgan qal'alar qurilgan. Turli hil himoya vositalari va harbiy qurollar topilgan. Bu esa, jamiyatda harbiylarga ehtiyojning yuqoriligini ko'rsatishi bilan birga aholini tashqi dushmanidan himoyalovchi birlashma – davlatchilik boshqaruvi bo'lganligini ham aks ettiradi. Qo'shni qabilalarning hujumlari davlatning harbiy jihatdan yuksalishiga olib kelgan.

Baqtriya hududida ilk davlatchilik elementlari bronza davrida, ya'ni mil.avv. II ming yillikning ikkinchi yarmida shakllangan [6. B.171; 3. 142]. Bu A.Asqarov tomonidan Sopollitepa va Jarqo'tonda olib borilgan tadqiqotlar asosida isbotlangan. Mil.avv. XIX–XVIII asrlarga oid Jarqo'ton yodgorligi O'zbekiston hududidagi ilk shahar bo'lib, unda dastlabki davlatchilik elementlari mavjud bo'lgan [6. B.163]. Shuningdek, yodgorliklarda ibodatxonalar va diniy e'tiqod bilan bog'liq obidalarning topilishi ham hududda davlat mavjud bo'lganligini asoslaydi. Chunki, diniy g'oya insonlarni bir maqsad sari birlashtirib, birgalikda faoliyat yuritishlariga zamin yarata olgan.

Akademik A.Asqarov Sopolli madaniyatida shahar–davlatning paydo bo'lishiga quyidagi uchta iqtisodiy va ijtimoiy omillar ta'sir ko'rsatgan deb hisoblaydi: [4. S. 14-24]

Birinchi omil	Ikkinchi omil	Uchinchi omil
Tabiiy sharoit: Unumdor tuproq, suv va boshqa geografik omillar	Sug'orma dehqonchilik va uni ta'minlovchi agrotexnika	Ijtimoiy tabaqalanishning yuz berishi

Shu uchta omil bir vaqtda mavjud bo'lgandagina dastlabki shaharlarning shakllanishiga zamin paydo bo'ladi va ular asosida shahar–davlatlar paydo bo'ladi. Ana shu uch omil O'rta Osiyoda, jumladan, janubiy O'zbekistonda, Surxondaryo viloyatining Sherobod cho'li hududida, mil. avv. II ming yillikning o'rtalarida, Jarqo'ton yodgorligi misolida mavjud bo'lgan [6. B.147].

Shimoliy Baqtriya hududida shakllangan ilk davlat – voha–davlat bo'lib, u Ulanbuloqsoy, Bo'stonsoy o'zanlari bo'ylaridagi aholini birlashtirgan. Bu hududda rivojlanish ilk temir davrida ham davom qilib, Sherobod dehqonchilik vohasi sifatida hududidi kengaygan. Bu davrda uning markaziy shahri Jondavlattepa hisoblangan.

Ilk temir davriga oid shimoliy Baqtriya hududida 3 ta dehqonchilik vohasining shakllanishi hududning siyosiy, iqtisodiy jihatdan rivojlanganligini, ya'ni davlatchilikning rivojlanganligini o'zida aks ettiradi.

Akademik A.S.Sagdullaev O'rta Osiyoning janubiy hududlarida ilk davlatlarning paydo bo'lishi va rivojlanishini quyidagi davrlarga bo'lib ko'rsatdi:

1. Bronza davriga oid qadimgi dehqonchilik o'lkalarida ilk davlatchilik belgilarining paydo bo'lishi davri;

2. Bronza davridan ilk temir davriga o'tish (mil.av. X–VIII asrlar) davrida Aryoshayano – kichik davlat birlashmalarining paydo bo'lishi davri;

3. Ilk temir davrida (mil.av. VII–IV asrlar) Qadimgi Baqtriya tipidagi yirik davlat birlashmalarining paydo bo'lish davri [15. S.40-41; 16. B.22-31].

Akademik E.V.Rtveladze O'zbekistonda davlatchilikning ilk bosqichi mil.avv. II ming yillikning ikkinchi yarmiga oid bo'lib, hududiy–vohalarning ixtiyoriy birlashuvi asosida shakllangan deb ko'rsatadi. Ularning boshida saylangan hukmdor va qabilalar oqsoqoli bo'lgan deb hisoblaydi [13. S.48].

Sh.Shaydullaev “O'zbekiston hududida davlatchilikning paydo bo'lishi va rivojlanish bosqichlari (Baqtriya misolida)” nomli doktorlik ishida Qadimgi Baqtriya podsholigi nom davlat sifatida shakllangan degan xulosani beradi [22. B.286]. U tadqiqot ishida ilk davlatchilikning arxeologik belgilarini quyidagilar deb ko'rsatadi:

1. Aholining ijtimoiy tabaqalanishini bildiruvchi yodgorliklar ierarxiasining paydo bo'lishi, ya'ni hashamatli yoki oddiy uylarning bo'lishi, yodgorliklarning tiplarga ajralishi, qabrlar va unda uchraydigan topilmalarning son va sifat jihatdan farq qilinishi.

2. Aholi demografiyasi va uni tasdiqlovchi yodgorliklarning hududiy kengayishi va yodgorliklar sonining oshishi hamda tiplarga bo'linishi.

3. Ilk davlatlar bilan bir vaqtda uning siyosiy, madaniy, ideologik va iqtisodiy markazi sifatida shaharlarning paydo bo'lishi, shahar atrofida kichik yodgorliklarning jamlanish jarayonining kechishi.

4. Dehqonchilikning rivojlanganligini tasdiqlovchi mehnat qurollarining takomillashuvi, sun'iy sug'orish kanallari va shoxobchalarining paydo bo'lishi, dehqonchilik mahsulotlarini, ya'ni iste'moldan ortiqcha zaxira boyluklarni saqlash uchun omborxonalarining bo'lishi va ekin turlarining oshishi.

5. Hunarmandchilikning yuksak darajada rivojlanganligini ko'rsatuvchi hunarmandchilik mahsulotlari turlarida sifat o'zgarishlarining sodir bo'lishi. Hunarmandchilikda markazlashuv jarayonining kuzatilishi.

6. Chorvachilikning rivojlanishi va uning tarkibida yilqichilikning paydo bo'lishi.

7. Harbiy va mudofaa ishlarining takomillashuvini belgilovchi harbiy istehkom, qal'alarining qurilishi, mudofaa devorlari va burjlarning qo'llanilishi, jang qurollarining takomillashuvi.

8. Kishilarni ma'naviy, ruhiy birlashtiruvchi va jamiyatni boshqaruv ishida faol bo'lgan, yakka xudolikka asoslangan dinning mavjudligini tasdiqlovchi arxeologik belgilar – monumental ibodatxonalar, oila altarlari, ilohiy predmetlar (ilohiy idishlar)ning bo'lishi.

9. Savdo va boshqa xalqlar bilan madaniy aloqaning rivojini aniqlashda qo'l keladigan, boshqa xalqlarga xos bo'lgan moddiy madaniyat namunalari ko'plab topilishi, savdo yo'llarining takomillashuvi.

10. Xususiy mulk yoki siyosiy birlashma belgisi hisoblangan muhrlarning bo'lishi.

11. Jamiyatning sivilizatsiyaga erishganligining mahsuli sifatida – gliptika, epigrafika va ibtidoiy yozuvning paydo bo'lishi [22. B.63].

Bu belgilarning barchasi Jarqo'tonda bo'lib, ilk davlatchilik mavjud bo'lganligini asoslaydi. Shuningdek, Sh.Shaydullaev o'z tadqiqotida Baqtriyada ilk temir davrida hududiy davlat shakllanganligi va ularning birlashuvi, ya'ni konfederatsiyasi natijasida mil. avv. VIII asrda Baqtriya podshohligi mavjud bo'lganligi arxeologik ma'lumotlar asosida asoslagan. O'.Abdullaevning tadqiqot ishida ilk temir davrida Baqtriyada hududiy jihatdan o'rtamiyona davlatlar paydo bo'lgan degan fikr berilgan [3. B.142].

N.M.Ikromov "Baqtriya kaviyiligi" deb nomlangan tadqiqot ishida "Avesto", "Shohnoma" matnlari va arxeologik ma'lumotlari asosida Baqtriya hududida shakllangan davlatchilik masalalarining yechimiga yangicha yondoshuvlarni ilgari surgan [12. B.52]. Jumladan; "Qadimgi Baqtriya podshohligi" deb atalib kelinayotgan davrni, ya'ni mil.avv. IX-VIII asrlarni "Qadimgi Baqtriya kaviyiligi" deb atashni taklif qilgan. Bunda tadqiqotchi "kaviy" atamasi davlat boshqaruvidagi titul deb ko'rsatgan [12. B.10,22] va ahamoniyar hukmronligi davridan bu titul "satrap" atamasi bilan o'zgartirilgan deb xulosa bergan.

"Kaviy" atamasi tadqiqotchilar o'rtasida ko'p muhokama qilinib kelinayotgan masala bo'lsa-da, shu unvon bilan tilga olingan shaxslarning tarixiy shaxs bo'lganligini keyingi yillarda e'tirof etilmoqda [21. B.12-13]. Kaviylarning geneologiyasi "Avesto" va "Shohnoma" asarida qayd qilinib o'tilgan bo'lib, N.M.Ikromov ularni quyidagi tartibda beradi: Kaviy Kavati, Kaviy Apivox, Kaviy Usan, Kaviy Arshan, Kaviy Pishin, Kaviy Biyarshan, Kaviy Siyavarshan, Kaviy Xishrav, Kaviy Arvatasp, Kaviy Vishtasp. I.V.Pyankov fikri bo'yicha, Kaviylarning hukmronligini 2 davrga ajratgan va ilk Kaviylar shakllangan hududni Xamun ko'li atrofi va Baqtriya hududlari deb ko'rsatadi [21. B.13-14]. O'z navbatida kaviylarning hukmronligining shu qadar katta hududni egallashining o'zi munozarali masalalardan biriga aylanadi.

"Katta Xorazm" tarixini o'rganish XIX asrning oxiri – XX asrning boshlarida "Avesto", yunon va rim yozma manbalaridagi ma'lumotlarni tahlil etish orqali boshlangan [1; 2]. XX asrning 30–yillaridan O'zbekistonda boshlangan arxeologik tadqiqotlar, mazkur yozma manbalardagi ma'lumotlarni arxeologik materiallar bilan taqqoslashga imkon bergan.

Sug'dda ilk davlatchilikning izlari ilk temirga oid yodgorliklar asosida o'rganilgan. Sug'd hududidan topilgan Afrosiyob, Ko'ktepa, Yerqo'rg'on, Uzunqir, Sangirtepa, Daratepa yodgorliklarini ilk voha–davlat tizimi bilan bog'laydilar [19. S. 12-51; 9. S.68-77; 18. S. 17-18; 23. S.41-42]. Ilk temir davrida Sug'd vohasidagi ilk davlatchilikning shakllanishida, tadqiqotchilar fikricha, Baqtriya davlatining ta'siri bo'lgan [17. S. 81-82; 19. S. 43].

Markaziy Osiyo hududida shakllangan ilk davlat – "Katta Xorazm" qabilalar konfederatsiyasi masalasi ham olimlar o'rtasida 100 yildan ko'proq muhokama qilinayotgan bo'lsa-da, haligacha o'zining yechimini topgan emas. XX asr boshlarida "Katta Xorazm" masalasini nemis olimlari I.Markvart, V.Xenning yunon mualliflari Gekatey, Gerodot va Avesto ma'lumotlari asosida ilgari surishgan edi. "Katta Xorazm" qabilalar konfederatsiyasi bo'yicha tadqiqot olib borgan olimlar XX asrning 80–yillariga qadar, bu davlatning mavjudligini arxeologik ma'lumotlar asosida isbotlashga harakat qilganlar [8. S.156; 7. S.39-41; 20. S.55-56]. XX asrning 80–yillaridan keyin bu birlashma mavjud ekanligini inkor etuvchi ilmiy g'oyalar ilgari suriladi [27. s.188; 5. B. 6-84]. Bu fikrlar N.A.Egamberdievaning nomzodlik ishida keng yoritib berilgan [24. S.82- 93]. "Katta Xorazm" davlatining o'rganilish jarayonidagi ilgari surilgan fikrlar tahlil qilingan. Bu davlat

qabilalalar konfederatsiyasi ekanligi asoslanib, uning Gerodot ma'lumotida ko'rsatilgandek, nihoyatda katta hududni egallaganligini shubha ostiga olingan, chunki bu arxeologik jihatdan o'z isbotini topgan emas. Qadimgi Xorazmda ilk davlat mil.avv. VII asrning oxiri - VI asrning boshlariga oid bo'lgan Ko'zaliqir, Xazorasp shaharlarini va Xumbuztepa hunarmandchilik markazini o'rganish orqali mavjud bo'lganligi arxeologik tadqiqotlar natijasida o'z isbotini topgan. Ahamoniylar hukmronligidan oldin qadimgi Xorazmda ilk davlat shakllangan [25].

### XULOSALAR.

Davlat turli xalqlarda turli vaqtlarda, turli shaklda shakllangan. Bunga birinchi navbatda tabiiy–geografik sharoit ta'sir ko'rsatgan. Inson va jamiyat hayoti tabiiy faktorlar bilan chambarchas bog'liq bo'lgan va bu har bir jamiyat taraqqiyotining o'ziga xosligi tashkil etgan. Ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanishi bilan jamiyatning sotsial tuzilishi murakkablashib borgan. Buning natijasida boshqaruv elementlari shakllana boshlagan.

O'rta Osiyo hududida ilk davlatchilikning shakllanishi uchun tarixiy ildizlar bronza davridan boshlangan. Bu davrda voha davlatchiligi shakllanishi uchun zamin yaratilgan. Shu davrdan boshlab, siyosiy boshqaruv organlari bosqichma–bosqich rivojlanib, takomillashib borgan. Bronza davrida Baqtriya hududida, ilk temir davrida, ya'ni mil. avv.VIII asrda Sug'dda va mil.avv. VI asrning boshlarida qadimgi Xorazmda ilk davlatchilik elementlari mavjud bo'lgan.

### Iqtiboslar / References / Сноски

- 
- [1] Арриан Филавий. Поход Александра. Пер. М.Е.Сергеенко, вступ. ст. Крюгера О.О. – СПб: Алетей, 1993.
- [2] Геродот. История в девяти книгах. Пер. и примеч. Г.А. Стратановского. – Ленинград: Наука, 1972.
- [3] Абдуллаев Ў. И. Ўрта Осиёда қадимги бошқарув ва илк давлатчилик тарихшунослиги. – Тошкент: Akademiya, 2009.
- [4] Аскарлов А., Ширинов Т. Ранняя городская культура эпохи бронзы юга Средней Азии. – Самарканд: Инст. Археологии АН РУз. 1993.
- [5] Аскарлов А. Қадимги Хоразм тарихига доир баъзи бир масалалар // Ўзбекистон этнологияси: янгича қарашлар ва ёндошувлар. –Тошкент. 2004. –Б.76-84.
- [6] Аскарлов А. Ўзбек халқининг келиб чиқиш тарихи. – Тошкент: O'zbekiston, 2015.
- [7] Воробьева М.Г. Проблема “ Большого Хорезма” и археология. // Этнография и археология Средней Азии. – Москва: Наука, 1979. – С. 38– 42.
- [8] Дьяконов И.М. История Мидии от древнейших времен до конца IV века до н.э. I книга. – Баку: Нагил Еви, 2012.
- [9] Исамиддинов М., Иваницкий И., Хасанов М. Раскопки в северной части “культурного комплекса” и в “резиденции правителя” городища Коктепа. //Ўзбекистонда археологик тадқиқотлар- 2002 йил. 3-сон. 2003. – С. 68-77
- [10] История государственности Узбекистана: В 3–х т. Т. I. /Авт. Э.В.Ртвеладзе, Д.А.Алимова и др. – Ташкент: Узбекистан, 2009.
- [11] История государственности Узбекистана. – С. 48, 69;
- [12] Икромов Н. М. Қадимги Бактрия кавийлиги т.ф.н. илм. даражасини олиш учун ёзилган автореферат. –Термиз, 2020. –52 б.
- [13] Ртвеладзе Э.В. Периодизация развития и типология ранних государств. / История государственности Узбекистана: В 3–х т. Т. I. /Авт. Э.В.Ртвеладзе, Д.А.Алимова и др. – Ташкент: Узбекистан, 2009.
- [14] Сарианиди В.И. О великом лазуритовом пути на Древнем Востоке. // КСИА. Вып. 14. 1968.
- [15] Сагдуллаев А.С. Оседлые области юга Средней Азии в эпоху раннего железа: генезис культуры и социально – экономическая динамика. Автореферат дисс. на соис. уч. ст. докт. ист. наук. – Ташкент. 1988.

- [16] Сагдуллаев А.С., Аминов Б., Мавлонов Ў., Норқулов Н. Ўзбекистон тарихи: давлат ва жамият тараққиёти. I – қисм. – Тошкент: Академия, 2000.
- [17] Сагдуллаев А.С. Становление раннебактрийской и раннесогдий государственности. // История государственности Узбекистана. Том.I. – Ташкент: Узбекистан, 2009. – С. 61 – 88.
- [18] Сагдуллаев А. С. Самарканд в системе древней урбанизации. / Самарканд шаҳрининг умумбашарий маданий тараққиёт тарихида тутган ўрни. Самарканд шаҳрининг 2750 йиллик юбилейига бағишланган халқаро илмий симпозиум материаллари. – Тошкент – Самарканд. 2007.
- [19] Сулейманов Р.Х. Древний Нахшаб. Проблемы цивилизации Узбекистана VII в. до н.э. – VIII в. н.э. – Ташкент: Фан, 2000.
- [20] Хлопин И.Н. Историческая география южных областей Средней Азии. – Ашхабад: Ёлим, 1983.
- [21] Ходжаева Н.Дж. Динамика развития географических представлений о Центральной Азии в древней и раннесредней Иранской традиции. Дисс. на соис. уч. ст. докт. ист. наук. – Душанбе. 2016.
- [22] Шайдуллаев Ш.Б. Ўзбекистон ҳудудида давлатчиликнинг пайдо бўлиши ва ривожланиши (Бактрия мисолида). т.ф.д. илм. даражасини олиш учун ёзилган диссертация. – Самарканд, 2009.
- [23] Шайдуллаев Ш.Б. Қадимги суғд ҳудудида илк шаҳар маданиятининг шаклланиши хақида айрим мулоҳазалар. / Самарканд шаҳрининг умумбашарий маданий тараққиёт тарихида тутган ўрни. Самарканд шаҳрининг 2750 йиллик юбилейига бағишланган халқаро илмий симпозиум материаллари. – Тошкент – Самарканд. 2007.
- [24] Эгамбердиева Н.А. Археологические и археографические исследования истории древнего Хорезма (VI – IV вв. до н.э.) диссер. на соис. кан. ист. наук. Нукус. 2001.
- [25] Egamberdieva N.A. Amudaryo havzasi hududlarining qadimgi madaniyati (mil.avv. VIII-mil. IV asrlar). – Toshkent. 2020
- [26] Ягодин В.Н. Древний Хорезм и Центрально-азиатский урбанизационный процесс. //Тезисы докладов конференции “Возникновения и развития урбанизационных процессов в Центральной Азии”. –Самарканд, 1995.



ISSN 2181-9696

Doi Journal 10.26739/2181-9696

# «MA'MUN SCIENCE» JURNALI

2 JILD, 2 SON

ЖУРНАЛ «MAMUN SCIENCE»

TOM 2, HOMEP 2

JOURNAL OF «MAMUN SCIENCE»

VOLUME 2, ISSUE 2

Контакт редакций журналов. [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)

ООО Tadqiqot город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)

Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)

Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)

Phone: (+998-94) 404-0000